

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

«RO'YXATGA OLINDI»

№ VM - 343 - 3400 - 3.01
«09» ___ 08 ___ 2003 y.

«TASDIQLANDI»

**O'zbekiston Respublikasi
Oliy va o'rta maxsus
ta'lim vazirligi
S.Tulyaiov
«1» iyul 2003 y.**

«STATISTIKA»

fanidan

DASTUR

**340000 - “Biznes va boshqaruv” ta'lim sohasidagi barcha bakalavriat yo'nalishlari
uchun**

Toshkent - 2003

Tuzuvchi: prof. M. Hamraev

Taqrizchilar: i.f.n., prof. X.Xo'jaqulov,
i.f.n., dots. A.Nabixo'jaev.

Mazkur o'quv dasturi «Biznes va boshqaruv» ta'lim sohasidagi Oliy o'quv yurtlari va fakultetlari talabalari uchun mo'ljallangan. Dastur yagona va yaxlit «Statistika» fanining tarkibiy qismlari: Statistikaning umumiy nazariyasi, Makroiqtisodiy statistika va Mikroiqtisodiy (moliya) statistikasini o'z ichiga oladi. Bunda ijtimoiy - iqtisodiy va iqtisodiy - moliya sohasida yuz beradigan hodisa va jarayonlar to'g'risidagi dastlabki va yig'ma ma'lumotlarni to'plash (statistika kuzatuvi), ularga ishlov berish va umumlashiruvchi statistika ko'rsatkichlarini hisoblash orqali tahlil va talqin qilish borasidagi statistika fani nazariyasi va amaliyoti bayon qilinadi. Bu dasturdan shu yo'nalishdagi kollejlar ham foydalanishi mumkin.

Данная учебная программа предназначена для студентов высших учебных заведений и факультетов в области знания «Бизнес и управление». Программа состоит из 3 - х составных частей единого и целого курса «Статистика»: Общая теория статистики, Макро и микроэкономическая статистика. В ней излагаются вопросы статистической науки и практики сбора данных, их обработки и интерпретации при помощи исчисления обобщающих статистических показателей. Данная программа может быть использовано и в коллежах такого профиля.

The given educational program is intended for the students of higher educational institutions and faculties on a direction "Business and management". The program consists of 3 components of a uniform and whole course "Statistics": the theory of statistics, macro and microeconomic statistics. In it the questions of a statistical science and practice of data gathering, their processing and interpretation are stated through calculation of generalizing statistical parameters. The given program can be used and in colleges of such structure.

1. SO'Z BOSHI

O'qitishning maqsadi va vazifasi

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tayyorlanayotgan iqtisodchilarning statistika fani va faoliyati bo'yicha bilimlarini oshirish, real moliya - iqtisodiy informatsiyalarni to'plash, qayta ishlash va tahlil qilish ko'nikmalarini paydo qilishni taqozo etadi. Ma'lumki "Biznes va boshqaruv" ta'limi sohasidagi talabalarga o'qitiladigan yagona va yaxlit "Statistika" kursi bir necha tarkibiy qismlardan (statistikaning umumiy nazariyasi, iqtisodiy statistika, makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy statistika va boshqalar) iboratdir. Chunonchi statistikaning umumiy nazariyasi qismida ommaviy ijtimoiy - iqtisodiy hodisa va jarayonlar to'g'risidagi dastlabki (birlamchi) ma'lumotlarni to'plash, ishlov berish, tahlil va talqin qilinishning umumiy qoida va usullarini o'rgatadi. Makroiqtisodiy statistika - barcha tarmoq, sektor, bloklar statistikalari va boshqa moliya - iqtisodiyot fanlari uchun umum - uslubiy asos bo'lib xizmat qiladi. Bunda iqtisodiy faoliyatni tarmoq, sektor va bloklar, hamda yaxlit iqtisodiyot bo'yicha ko'rsatkichlar tizimi yordamida baholaydi, tahlil qiladi va bashoratlaydi. Makroiqtisodiy statistika mamlakat iqtisodiyotini halqaro doiralarga ko'rsatadi va uning ma'lumotlari asosida halqaro taqqoslashuvlar amalga oshiriladi. Mikroiqtisodiy statistika qismini o'qitilishi natijasida talabalar davlat moliyasi, nomoliyaviy korxonalar moliyasi, moliya muassasalari moliyasi, ichki iqtisodiyotning boshqa sektorlari va qolgan dunyo moliyasiga oid ma'lumotlarni to'plash, ishlov berish va tahlil qilishning asosiy qoida va usullaridan foydalanishko'nikmalariga ega bo'ladilar.

Shuning uchun statistika fani bo'yicha savodxonligi darajasiga ko'ra tayyorlanayotgan bakalavrlarning bilim darajasiga baho beriladi.

Fan bo'yicha talabalarining bilimiga, uquviga va ko'nikmasiga qo'yiladigan talablar

Oliy ta'limning 5340000 – «Biznes va boshqaruv» ta'lim sohasi bo'yicha Davlat ta'lim standartida ko'rsatilgan bakalavr tayyorlash saviyasi va mazmuniga "Statistika" fani bo'yicha minimum talablarga javob bermog'i zarurdir.

Talaba bu kursni bitirgach iqtisodiyotda yuz berayotgan jarayonlarni miqdoriy baholash uchun dastlabki va yig'ma statistika ma'lumotlarini to'plash, statistika ko'rsatkichlarini hisoblash, natijalarini tahlil va talqin qilish, iqtisodiy diagnostika bilan shug'ullanish va boshqa ko'nikmalariga ega bo'lmog'i darkor

O'quv rejasidagi boshqa fanlar bilan aloqasi

"Statistika" fanini samarali o'rganish uchun talabalar oliy matematika, ehtimollar nazariyasi va matematik statistika, iqtisodiyot nazariyasi, buxgalteriya hisobi,

makroiqtisodiyot, mikroiqtisodiyot (sh.j. moliya, kredit, soliq, korxonalar iqtisodiyoti) fanlaridan etarli ma'lumotlarga ega bo'lmoqlari zarur. Shuningdek ular iqtisodiy - matematik usullaridan va kompyuterda statistikaga oid standart dasturlardan, internet tizimidan foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lmoqlari darkor.

Statistika moliya - kredit va iqtisodiyotning boshqa sohalari bo'yicha referatlar, kurs va malakaviy bitiruv ishlarini yozish va himoyalash, ilmiy tadqiqotlarni o'tkazishda keng qo'llaniladi. Ushbu o'quv dasturi namunaviy bo'lib, uning asosida oliy o'quv yurtlarining tegishli kafedralari ish dasturlarini tuzishlari mumkin.

Fanni o'qitishdagi yangi texnologiyalar

“Statistika” fani bo'yicha ma'ruza va amaliyot mashg'ulotlarini o'tkazishda (kompyuterlarda standart dasturlar asosida) “Internet” tarmog'ida joylashtirilgan xalqaro tashkilotlar (UNStat, WVank, IMF, EuroStat va hokazo) ning statistika xizmatlari, MDH Statkomiteti, O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasi ma'lumotlari, ko'rsatmalari, yo'riqnomalaridan foydalanish, tarqatma materiallar tayyorlash va tarqatish, fanning hamda statistika faoliyatining zamonaviy muammolarini o'z ichiga olgan tematika asosida ilmiy - uclubiy sharhlar va referatlar tayyorlanadi. Imkoniyat darajasida o'qitishning interaktiv usullaridan foydalaniladi. Test tizimi va nazoratning barcha turlari qo'llaniladi.

Fanni o'qitishning semestrlari va uslubiy ko'rsatmalar

Namunaviy o'quv rejasi bo'yicha bu fan III - IV - V semestrlarida o'qitiladi. Bunda III semestrda yagona va yaxlit fanning birinchi qismi – Statistikaning umumiy nazariyasi, IV - semestrda ikkinchi qismi – Makroiqtisodiy statistika va V semestrda – Mikroiqtisodiy (moliya) statistikasi o'qitiladi.

Umumiy va o'quv ishlari turlari bo'yicha hajm

Namunaviy o'quv rejasida “Statistika” faniga 243 soat ajratilgan bo'lib, uning 90 soati ma'ruza, 72 soati amaliy mashg'ulot va 81 soati mustaqil ta'limdan iborat.

2. «STATISTIKA» FANINING I - QISMI (STATISTIKA UMUMIY NAZARIYASI) DASTURI

Statistika fanining asosiy masalalari

Statistika fanining paydo bo'lishi va rivojlanishi. Statistika haqida tushuncha. Statistika fanining vujudga kelishi. Statistika fani rivojlanishining asosiy yo'nalishlari: davlatshunoslik, siyosiy arifmetika maktabi va statistik - matematik yo'nalish. Statistika fanining shakllanishi va rivojlanishida buxgalteriya hisobi, ehtimollar nazariyasi va matematik statistika fanlarining ahamiyati. Markaziy

Osiyoda statistikaning paydo bo'lishi va rivojlanishi. G'arbdagi asosiy statistika maktablari.

Statistikaning predmeti va metodlari. Statistikaning predmeti, u haqidagi ilmiy baxslar. Statistikaning nazariy asoslari. Umumbashariy falsafa, iqtisodiyot nazariyasi va matematik statistika statistikaning nazariy va uslubiy asoslari. Statistika va tabiiy, texnika - texnologiya, iqtisodiy fanlarining o'zaro hamkorligi.

Statistikaning asosiy tushunchalari: to'plam, to'plam birligi, farqlanuvchi belgi, statistik vazn, statistika ko'rsatkichi va boshqalar. Statistika uslubiyatining xususiyatlari. Statistikaning umum - ilmiy va maxsus metodlari. Statistika tadqiqotining an'anaviy va zamonaviy metodlari. Statistika tadqiqotining bosqichlari.

Statistika fani va faoliyatining tarkibiy qismlari, tabaqalanishi va o'rganish bosqichlari. Statistikaning umumiy nazariyasi va uning tarkibi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida statistika vazifalarining ravshanlashuvi.

Statistika faoliyatining tashkil etilishi. O'zbekiston Respublikasida statistika faoliyatini tashkil qilinishining huquqiy asoslari. Asosiy qonun, "Davlat statistikasi to'g'risidagi qonun" (12.12.2002), rasmiy statistika standartlari (andozalari), xalqaro normalar va bitimlar. O'zbekiston Respublikasida asosiy statistikani jahon standartlari, qoida va tushunchalari asosida reformatsiya qilish va MXT(SNA)ni joriy etish borasidagi Davlat dasturini bajarilishi. Xalqaro tashkilotlar, MDH va boshqa chet el davlatlarida statistikani tashkil etilishi. Statistika sohasida xalqaro hamkorlik. Joriy va asosiy statistika.

Statistika kuzatuv

Statistika axboroti (informatsiyasi) haqida tushuncha. Yagona axborot maydoni: mohiyati va tashkil etilishi. O'zbekiston Respublikasida statistika kuzatuvini o'tkazuvchilar: davlat statistika kuzatuvchi, tarmoq (idoraviy) statistika kuzatuvchi va boshqalar. Statistika kuzatuvlarini o'tkazish ob'ektlarining bosh to'plami. O'zbekiston Respublikasida EGRPO (korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registri) ning joriy etilishi.

Statistika kuzatuvchining asosiy tashkiliy shakllari, turlari va usullari. Statistika kuzatuvining dastur – uslubiyat masalalari. Kuzatuvning registr shakli. O'zbekiston Respublikasida MXT (SNA) ni joriy etilishi va informatsiya resurslari va asoslarini reformatsiya qilinishi. Xo'jalik faoliyatini tadqiq qilish tizimini tashkil qilinishi (biznes - tadqiqot). Statistika kuzatuvining tashkiliy masalalari. Statistika kuzatuvini tashkil qilish, ma'lumotlarga ishlov berish va tahlil qilishda bank texnologiyasidan foydalanish. Statistika kuzatuvda yo'l qo'yiladigan xatolar. Statistika kuzatuvda – statistikaning asosiy printsiplari: ishonchlilik, xolislik, beg'arazlik, dolzarblik,

qulaylik, qiyosiylik va barqarorlik, ochiq - oydinlik va oshkoralikni ta'minlash borasidagi vazifalar.

Davlat statistika hisobotlarini buzib ko'rsatganlik, statistika ma'lumotlarini yashirganlik va davlat statistikasi to'g'risidagi qonun hujjatlarini boshqacha tarzda buzganligi uchun javobgarlik. *Xorijiy mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar statistikasida kuzatuvning nazariyasi va amaliyoti.*

Statistika kuzatuvi materiallariga ishlov berish (majmualash, guruhlash, statistika jadvallari)

Statistikada majmualash va guruhlashning ahamiyati. Ma'lumotlarni to'plash va ishlov berishning bank texnologiyasini joriy etilishi sharoitida birlamchi ma'lumotlarga ishlov berishning vazifalari va dasturi. Hisobot va maxsus o'tkaziladigan statistika tadqiqotlari materiallarini majmualash xususiyatlari.

Statistika ma'lumotlarini guruhlash. Guruhlash va tasniflash (klassifikatsiya). Guruhlashning turlari: tipologik, tuzilmaviy (strukturaviy), analitik va boshqalar. Guruhlashtirish belgisi. Guruhlar soni va intervallar (teng, teng bo'lmagan va maxsus). Guruhlashtirishda variatsiya ko'rsatkichlaridan foydalanish. Guruhlash natijalarini iqtisodiy - statistik baholash. Statistika guruhlarini taqqoslashtirish. Hududiy, davriy (vaqtli), balans va boshqa turdagi guruhlashtirishlar.

Statistikada ko'p belgili va ko'p o'lchamli guruhlashtirishlar. Ko'p o'lchamli guruhlashtirishning maqsadi va bosqichlari. Ko'p o'lchamli klassifikatsiyalarni amalga oshirishda ko'llaniladigan usullar (dendritlar usuli, sharlar usuli, ko'p o'lchamli o'rtachalar va boshqalar).

Statistika taqsimot qatorlari, ularning turlari. Variantalar va chastota (takrorlanish soni)lar. Taqsimot qatorlarini grafiklarda tasvirlash.

Statistika jadvallari. Jadval maketi, egasi va kesimi. Jadvallarning egasi xususiyati buyicha turlari. Oddiy, guruhli va kombinatsiyali jadvallar. Statistika jadvallarini tuzishning asosiy qoidalari. Jadvallarni o'qish va tahlil qilish.

Statistikada grafik usuli. Statistikada grafiklarni qo'llanishining rivoji, unda A. Krome, U. Pleyfer, A. Kettle, L. Bizov va boshqalarning xizmatlari. Grafiklarning asosiy elementlarini (qism, unsurlari) tuzish qoidalari.

Grafiklarning turlari. Diagrammalar, xaritogrammalar va statistika egri chiziqlari. To'plam tuzilmasi, taqsimot qatorlari, hodisa va jarayonlar o'rtasidagi o'zaro bog'lanishlarni grafikda tasvirlash usullari. Hududiy taqqoslashlarni grafiklarda tasvirlash.

Statistika ko'rsatkichlari

Statistika ko'rsatkichlari haqida tushuncha, ularning ahamiyati va funksiyalari. Ko'rsatkichlarning tavsifi, turlari. Statistika ko'rsatkichlariga qo'yilgan asosiy talablar. Sifat, makon, zamon va miqdor aniqliklarni birligida mavjud bo'lishi. Ko'rsatkichlarni nazariy asoslanishi, taqqoslana olishligi, ishonchliligi, aniqliligi. Xatolarning sabab (manba)lari. Ko'rsatkichlarning aniqliligi darajalari.

Statistika ko'rsatkichlari tizimi. Ko'rsatkichlar o'rtasidagi semantik, stoxastik va funksional bog'lanishlar. Iqtisodiy va sotsial indikatorlar, murakkab ijtimoiy - iqtisodiy muammolar bo'yicha monitoring xizmati faoliyati uchun indikatorlar.

Statistika ko'rsatkichlarini ifodalash shakllari. Absolyut (mutlaq) miqdorlar, ularning turlari, o'lchash usullari. Nisbiy miqdorlar: ahamiyati, ifodalash shakllari, turlari. Absolyut va nisbiy miqdorlarni birgalikda (kompleks) qo'llashning muhimligi. O'zbekiston Respublikasida asosiy va joriy statistika ko'rsatkichlarini xalqaro standartlar, tushuncha va qoidalar asosida hisoblashga o'tish borasidagi Davlat dasturining bajarilishi.

O'rtacha miqdorlar

O'tacha miqdor (daraja)lar: mohiyati va ahamiyati. O'rtacha miqdorlar to'g'risidagi ilmiy - amaliy bahslar (I.Zyusmilx, A.Ketle, A.Bauli, K.Djini, A.Boyarskiy, I.Pasxaver, V.Ovsienko va boshqalar). O'rtacha va nisbiy miqdorlar. O'rtacha miqdorlar va guruhlashtirish. O'rtacha miqdorlarni qo'llashning asosiy shartlari.

O'rtacha miqdorlarning klassifikatsiyasi. Analitik va tuzilmaviy o'rtachalar. O'rtacha arifmetik, o'rtacha garmonik va boshqa analitik o'rtachalar. O'rtachalar shakli va turini tanlash muammolari. O'rtacha miqdorlarning matematik xossalari va ulardan foydalanish.

Tuzilmaviy (strukturaviy, pozitsion) o'rtachalar. Moda, mediana, kvartili, detsili va boshqalar. Tuzilmaviy o'rtachalardan statistika tadqiqotlarda qo'llanilishi. *Ko'p o'lchamli o'rtachalar, mohiyati, hisoblash usullari, ahamiyati.*

Variatsiya ko'rsatkichlari

Variatsiya haqida tushuncha, uning mavjudligining sabablari. Variatsiyani statistikada o'rganishning zarurligi va vazifalari. Variatsiyaning absolyut va nisbiy ko'rsatkichlari va ularni hisoblash usullari. Variatsiya kengligi, o'rtacha mutloq (arifmetik) farqlanish, dispersiya, o'rtacha kvadratik (standart) farqlanish. Variatsiyaning nisbiy ko'rsatkichlari: ostsillyatsiya koeffitsienti, variatsiya koeffitsienti va boshqalar. *Variatsiya ko'rsatkichlari o'rtasidagi nisbatlar (bog'lanishlar).*

Dispersiya turlari va dispersiyalarni qo'shish qoidalari. Umumiy dispersiya, guruhlararo dispersiya va guruhlar ichidagi o'rtacha dispersiya. Dispersiyaning muhim matematik xossalari va ulardan foydalanish. *Sheppard tuzatishi: mohiyati, zarurligi*. Muqobil (alternativ) belgi dispersiyasi.

Taqsimot qatorlarida variatsiyani statistikada o'rganish. Taqsimot qonunlari. Iqtisodiy - statistik tadqiqotlarda normal taqsimotning ahamiyati. Empirik va nazariy taqsimotlarning muvofiqliligini baholash mezonlari.

Statistikada tanlama metodi

Tanlama metodi haqida tushuncha. Bozor iqtisodiyoti sharoitida uni qo'llash sabablari va asosiy shartlari. Tanlama metodining nazariy asoslari. Chebishev P.L., Lyapunov A.M., Markov A.A., Bortkevich V.I., Bouli A., Pirson K. Edjvort, Neyman B., Kokren U., Yeyts F., Romanovskiy V. va boshqalarning ilmiy ishlarida tanlama metod nazariyasining rivojlantirilishi. Tanlama kuzatuvining bosqichlari. Bosh va tanlama to'plam. Bosh va tanlama to'plamni tavsiflovchi asosiy umumlashtiruvchi ko'rsatkichlar.

Tanlama to'plamni tashkil qilish usullari. Bosh to'plamdan birliklarni tanlab olish usullari. Tasodifiy, mexanik, tipik, rayonlashtirilgan va boshqa turdagi tanlash usullarining tashkiliy va uslubiy xususiyatlari. Ko'p fazali tanlash, momentli (fursatli) tanlash va kichik tanlama va boshqalar. Anketa usulida tanlama kuzatuvini.

Tanlama kuzatuidagi xatolar. Tanlama to'plamga kirgan birliklarning soni va salmog'i, variatsiya darajasi, ishonch koeffitsienti va boshqa faktorlarning tanlama kuzatuvini xatolariga ta'siri. O'rtacha xato va xatoning yuqori chegarasini aniqlash. Ishonch koeffitsienti va ishonch chegaralari. Tanlama kuzatuvini natijalarini bosh to'plamga tarqatish usullari. Tanlamaning zaruriy miqdorini aniqlash. Iqtisodiy - statistika amaliyotida yoppasiga va tanlama kuzatuvini birga qo'shib o'tkazish (tsenz tadqiqotlari). Moliya - iqtisodiy va sotsial tadqiqotlarda tanlama metodining qo'llanilishi.

O'zaro bog'lanishlarni statistikada o'rganish

Hodisa va jarayonlarni umumiy bog'lanishlari. Bog'lanishlarning statistikada tanilgan turlari va shakllari. Moliya - iqtisodiy ko'rsatkichlarining o'zaro bog'liqligi va ularni statistikada o'rganish vazifalari. Bog'liqliklarni tadqiq qilishda hodisa mazmunini tahlil qilishning ahamiyati.

Bog'lanishlarni statistikada o'rganish usullari: yondosh qatorlar usuli, analitik guruhlash, grafikda tasvirlash, indeks usuli, balans usuli va boshqalar. Iqtisodiy - statistika tadqiqotlarida dispersion tahlilni qo'llanilishi.

Korrelyatsion - regression tahlil. Moliya - iqtisodiyot sohasidagi hodisa va jarayonlarni tahlil qilish uchun regressiya tenglamasining shaklini tanlash. Juft, xususiy va ko'p faktorli korrelyatsiya.

Bog'lanish kuchi (zichligi)ning ko'rsatkichlari. Korrelyatsiya indeksi, determinatsiya koeffitsienti, korrelyatsiyaning chiziqli koeffitsienti, korrelyatsiyaning rang (martaba) koeffitsienti. Bog'lanishlarni baholashning noparametrik usullari. Korrelyatsion - regression tahlil natijalarini baholash.

Sotsial (ijtimoiy) hodisalar o'rtasidagi o'zaro bog'lanishlarni o'rganish usullari.

Ijtimoiy - iqtisodiy hodisalar dinamikasini statistikada o'rganish

Dinamika qatorlari haqida tushuncha. Dinamika qatorlarining turlari, ularni tuzishning asosiy qoidalari (zamon, makon va uslubiy masalalari).

Dinamika qatorlarining asosiy analitik ko'rsatkichlari. Mutloq o'sish (pasayish), sur'ati, qo'shimcha o'sish (pasayish) sur'ati, 1% qo'shimcha o'sish sur'atining absolyut mazmuni. Dinamika qatorlarini tahlil qilishda noan'anaviy ko'rsatkichlardan foydalanish: jadallashtirish (sekinlash) sur'ati, kuchaytirish (bo'shashish) sur'ati va boshqalar. Bozor iqtisodiyoti sharoitida noan'anaviy ko'rsatkichlardan keng foydalanilishi.

Dinamika qatorlarida o'rtachalar. Ular (o'rtacha daraja, o'rtacha o'sish va qo'shimcha o'sish sur'ati)ni hisoblashning o'ziga xos xususiyatlari. Nisbiy va o'rtacha miqdorlardan tuzilgan dinamika qatorlarini o'rganish xususiyatlari.

Dinamika qatorlarining darajalarining komponentlari (tarkibiy qismlari): trend, tsiklik (sh.j. mavsumiy) qism va tasodifiy o'zgaruvchanlik. Dinamika qatorlarida trendni belgilash usullari: qatorlarni yagona asosga keltirish, sirg'anchiq o'rtacha darajalarini hisoblash, analitik tekislash va boshqalar. Mavsumiylik va uni statistikada baholash usullari. *Iqtisodiy barometrlar haqida tushuncha, ularni hisoblash va foydalanish masalalari. Kon'yuktura statistikasini tashkil qilishning zarurligi.*

Dinamika qatorlarida ekstrapolyatsiya va taxminlash. O'zaro bog'langan (o'zaro aloqali) dinamika qatorlarini tahlil qilish

Iqtisodiy indekslar

Iqtisodiy indekslar: mohiyati, ahamiyati va rivojlanishi tarixi. Indeksning klassifikatsiyasi. Individual va yig'ma (umumiy va guruhli) indekslar. Yig'ma indeksning sintetik va analitik xossalari. Agregat indeksi - yig'ma indeksning asosiy shaklidir.

Miqdoriy ko'rsatkichlar indekslari. Indekshtiriladigan miqdorlarni bir o'lcham (andoza)ga keltirish muammolari. Muhim miqdoriy ko'rsatkichlar indekslari.

Sifat ko'rsatkichlar indeklari: baho, tannarx, foiz stavkalari va boshqalar. Baho indekslarini hisoblashda vazn masalasi. E.Laspeyres (F.Virst), G.Paashe, (T.Mann), A.Marshall (F.Edjvort), I.Fisher indeklari. O'rtacha darajaning dinamikasini indeks metodi yordamida o'rganish. Indekslar o'rtasida bog'liqlik.

Faktor indeks analizi. Iqtisodiy ko'rsatkich va qo'shimcha o'sish (absolyut va nisbiy) faktorlari hissasini baholash.

Hududiy indekslar.

Makroiqtisodiy analizda indekslardan foydalanish. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni mamlakatlararo taqqoslash, deflyator - indekslar, iste'mol baholari indeksi, qimmatli qog'ozlar bozori holatini o'rganuvchi (fond) indekslar va boshqalar.

Tarkibiy tuzilishni statistikada o'rganish

Tarkibiy tuzilishning (struktura) mohiyati va o'rganish vazifalari. Struktura va strukturaviy siljish ko'rsatkichlari. Strukturaviy siljishlarni yig'ma holda baholash usullari: chiziqli koeffitsient, kvadratik koeffitsient. K.Gatevning integral koeffitsienti, Salai indeksi.

Konsentratsiya va markazlashuvning statistik ko'rsatkichlari. Aholi daromadlari, sarf va iste'moli, mulkiy tabaqalanishini ifodalashda Lorents egri chizig'i va Djini koeffitsientidan foydalanish. *To'plam strukturasi va uni o'zgarishini grafikda tasvirlash.*

3. AMALIY MASHG'ULOTLAR MAVZUSINING MAZMUNI

Statistika kuzatuv materiallariga ishlov berish (majmualash, guruhlash, statistika jadvallari)

Statistika ma'lumotlarini guruhlash. Guruhlashtirish belgisini tanlash, guruh va guruhlar orasidagi intervalni belgilash.* Variatsiya ko'rsatkichlaridan guruhlashtirishda foydalanish. Guruhlashtirish natijalarini iqtisodiy - statistik baholash.* Statistikada ko'p o'lchamli guruhlash: mohiyati, usullari.

Statistika ko'rsatkichlari

Absolyut (mutlaq) miqdorlar: asosiy turlari, hisoblash turlari.* Nisbiy miqdorlar, ularning mohiyati, ahamiyati, ifodalash shakllari, turlari.*

O'rtacha miqdorlar

Analitik o'rtachalar: arifmetik o'rtacha, garmonik o'rtacha va boshqa turdagi analitik o'rtacha miqdorlarni hisoblash.* O'rtacha turini tanlash mezonlari. O'rtacha miqdorlarning matematik xossalari va ulardan foydalanish.

Variatsiya ko'rsatkichlari

Variatsiyaning absolyut va nisbiy ko'rsatkichlari va ularni hisoblash.* Dispersiyalarni qo'shish qoidasi.*

Statistikada tanlama metodi (kuzatuv)

Tanlama to'plamni tashkil qilish usullari. Vakillilik xatosi, uning darajasiga ta'sir etuvchi faktorlar.* Turli usullar yordamida tanlama to'plamni tashkil qilishdagi o'rtacha xato va xatoning yuqori chegarasini hisoblash. Tanlama kuzatuv natijalarini baholash va bosh to'plamga tarqatish usullari. Tanlamaning zaruriy (optimal) miqdorini aniqlash.

O'zaro bog'lanishlarni statistikada o'rganish

O'zaro bog'lanishlarni statistikada o'rganish. Iqtisodiy - statistik tadqiqotlarda dispersion tahlilni qo'llanilishi. Korrelyatsion - regression tahlil.* Regressiya tenglamasi, uning parametrlarini hisoblash usullari.* Bog'lanish (zichlik) kuchi ko'rsatkichlari, ularni hisoblash va baholash.*

Ijtimoiy - iqtisodiy hodisalar dinamikasini statistikada o'rganish

Dinamika qatorlarining turlari, ularni tuzish qoidalari.* Ijtimoiy - iqtisodiy hodisalar dinamikasining analitik ko'rsatkichlari.* Nisbiy va o'rtacha miqdorlardan tuzilgan dinamika qatorlarini o'rganish xususiyatlari. Dinamika qatorlarida o'rtachalar.* Dinamika qatorlarini qayta ishlash usullari.* Dinamika qatorlarida barqarorlik va o'zgaruvchanlik, mavsumiylikni baholash. Dinamika qatorlarida ekstrapolyatsiya va taxminlash. Iqtisodiy barometrlar. Kon'yuktura statistikasi.

Iqtisodiy indekslar

Individual indekslar.* Yig'ma indekslar.* Yig'ma indekslarning shakllari: agregat shakli va o'rtacha indekslari.* Doimiy va o'zgaruvchan asosli va vaznli indekslar. O'rtacha darajalar dinamikasini indekslar yordamida tahlili.* O'zgaruvchan va o'zgarmas tarkibli yig'ma indekslar, struktura siljishi indeksi.* Faktorli indeks analizi. Makroiqtisodiy tadqiqotlarda indekslardan foydalanish.

Tarkibiy tuzilishni statistikada o'rganish

Tarkibiy tuzilish (struktura) va tarkibiy tuzilishdagi o'zgarishlarni statistikada baholash.* Konsentratsiya va markazlashuvning statistik ko'rsatkichlari.* Lorents egri chizig'i. Djini koefitsienti va boshqalar.*

4. TAVSIYA ETILAYOTGAN MAVZULAR BO'YICHA KO'RGAZMA - NAMOIYISH MATERIALLARI, O'QUV FILMLARI VA BOSHQA DIDAKTIK MATERIALLAR RO'YXATI

- - Ko'rgazma - namoyish materiallari ro'yxati

Barcha mavzular bo'yicha statistika jadvallari, chizmalar va grafiklardan foydalaniladi.

IMF, WBank, UNStat, Eurostat, MDH statkomiteti, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining statistikaga oid materiallari (yilnomalar, ko'rsatmalar, yo'riqnomalar, statistika shakllari) o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish jarayonida ko'rsatiladi va foydalaniladi.

- - Amaliyot darslarini o'tkazishda statistikaga oid standart dasturlardan foydalaniladi.
- - "Internet" tizimi materiallaridan keng foydalanish ko'zda tutiladi.

5. O'ZLASHTIRISHNING NAZORATI

«Statistika» fanining I - qismini talabalar tomonidan o'zlashtirilishi nazoratning quyidagi turlari yordamida baholanadi: Joriy baholash (12,6 ballgacha), oraliq baholash (25,2 ballgacha) va yakuniy baholash (16,2 ballgacha); jami 54 ball. Bu fan uchun belgilangan maksimal balldir.

Nazorat ishlarini o'tkazishda talabalarning darslarga qatnashuvi, faolligi, o'quv va qo'shimcha holda ilmiy - uslubiy adabiyotlardan, «internet» tizimidan va real ijtimoiy - iqtisodiy statistika ma'lumotlaridan foydalanishi va boshqa faolligi e'tiborga olinadi.

6. ADABIYOTLAR

Asosiy adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining qonuni "Davlat statistikasi to'g'risida"(12.12.2002). //Xalq so'zi, 2002 yil 26 dekabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni "O'zbekiston Respublikasi Makroiqtisodiyot va statistika vazirligini qayta tashkil etish to'g'risida".//Xalq so'zi, 2002 yil 26 dekabr.

3. Abdullaev g'.A. Statistika nazariyasi. Darslik, - T., 2002.
4. Eliseeva Z., Yuzbashev M.M. Obshchaya teoriya statistiki. Uchebnik, 4 - izdanie, - M.: FiS, 1999.
5. Sagatov N.M. Statistika. Darslik, - T., 2003.
6. Teoriya statistiki. Ucheb./Pod. red. R.A.Shmoylovoy. - M. FiS, 2001.
7. Teoriya statistiki s osnovami teorii veroyatnostey. Pod. red. I.I.Eliseevoy., - M.: Yuniti - Dana, 2001.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Adamov V.E. Faktorniy indeksniy analiz. - M.: Statistika, 1977.
2. Allen R. Ekonomicheskie indeksi. - M.: Statistika, 1980.
3. Aksenova T.V. Rasprostranenie informatsii iz statisticheskix baz dannix.//Voprosi statistiki, 5/2000.
4. Allen L.Webster "Applied Statistics for Business and Economics". Second Edithion. IRWIN,1995.
5. Belyaevskiy I.K. Statistika v teorii i prikladnix issledovaniyax.//Voprosi statistiki, 6/1999.
6. Borovikov V.P. Rusifitsirovannaya versiya "Statistica" - sistemniy podxod k analizu ekonomicheskix dannix.//Voprosi statistiki, 9/2000.
7. Bizov L.A. Graficheskie metodi v statistike, uchete i planirovanie. - M.: Gosplanizdat, 1940.
8. Venetskiy I.G. Venetskaya V.I. Osnovnie matematicheskie ponyatiya i formuli v ekonomicheskom analize. - M.: Statistika, 1974.
9. Deev G.I. Nesploshnoe statisticheskoe nablyudenie (problemi, metodi, texnologiya, organizatsiya). Monografiya. - M.: MIPK Goskomstata Rossii, 2000.
10. Djesson. Metodi statisticheskix obsledovaniy. - M.: FiS, 1985.
11. Djini K. Srednie velichini. - M.: Statistika, 1979.
12. Kazinets L.S. Teoriya indeksov - M.: Gosizdat, 1963.
13. Kevesh P. Teoriya indeksov i praktika ekonomicheskogo analiza. - M.: FiS, 1990.
14. Kendel M., Vremennie ryadi. - M.: Statistika, 1981.
15. Kokren U. Metodi viborochnogo issledovaniya. - M.: Statistika, 1976.
16. Kotlyarovskaya T.I. i dr. Sovremennaya kontseptsiya kachestva statisticheskix dannix i eyo ispolzovaniya v statisticheskoy praktike. //Voprosi statistiki, 5/2002.

17. Lind D.H., Mason R.D. "Basic statistics for Business and Economics" R.Irvin, inc, 1994.
18. Mills F. Statisticheskie metodi. - M.: Gosstatizdat, 1958.
19. Mixaylova T.M., Yuzbashev M.M. O mnojestvennosti pokazateley priznaka.//Voprosi statistiki, 9/2001.
20. R.I. Levin, D.S. Rubin "Statistics for managements." Prentice Hall, Englewood Cliffs, N.Jersey, 1994.
21. Statisticheskiy slovar. - M.: Finstatinform. 1996.
22. Sokolin V.L. Sistema Gosudarstvennoy statistiki: taktika i strategiya razvitiya.//Voprosi statistiki, 1/2001.
23. Simchera V.M. i dr. Zarubejniy opit postroeniya i publikatsii dolgovremennix istoriko - statisticheskix ryadov.// Voprosi statistiki, 10 - 11/2000.
24. Simchera V.M. i dr. Entsiklopediya statisticheskix publikatsiy: X - XX vv. - M., 2001.
25. Ferster, Rents. Metodi korelyatsionnogo i regressionnogo analiza. - M.: FiS, 1981.
26. Xarchenko L.P. Istoriya statistiki. Ucheb. pos. - Novosibirsk: 1997.
27. Hanke J.E., Reitsch A.G. "Understanding Business Statistics". Second edition, R.Irvin, inc, 1994.
28. Yeyts F. Viborochniy metod v perezpisyax i obsledovaniyax. - M.: Statistika, 1965.
29. Shvirkov V. Kriticheskiy analiz statisticheskix shkol zapada.//Voprosi statistiki, 4/1997.
30. Pryaxina E.V, Bojko V.P. Perspektivnaya texnologicheskaya sxema elektronnoy obrabotki statisticheskix dannix.//Voprosi statistiki, 9/2000.
31. Sheynin O.B. Teoriya statistiki: istoricheskiy eskiz.// Voprosi statistiki, 9/2002.

«STATISTIKA» FANINING II - QISMI (MAKROIQTISODIY STATISTIKA) DASTURI

Makroiqtisodiy statistikaning asosiy masalalari

Makroiqtisodiy barqarorlashtirish va sehrli to'rtburchak vazifalarini bajarishda makroiqtisodiy izlanishlarning zarurligi va ahamiyati. Makroiqtisodiy statistikaning predmeti, kursning strukturasi. Makroiqtisodiy statistika muammolari haqida ilmiy -

amaliy bahslar. Makroiqtisodiy statistikada qo'llaniladigan umumilmiy metodlar, maxsus yondashuvlar, iqtisodiy - matematik metodlar.

Makroiqtisodiy statistikaning ko'rsatkichlari tizimi. O'tish iqtisodiyoti davrida makroiqtisodiy statistikaning ko'rsatkichlarini milliy tizimini tuzish xususiyatlari. Mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy - siyosiy xavfsizligi ko'rsatkichlari. Milliy raqobatbardoshlik: mohiyati, omillari, ko'rsatkichlari.

Muhim umumiqtisodiy tasniflar, guruhlashtirishlar, nomenklaturalar va ularning makroiqtisodiy izlanishlardagi ahamiyati. Milliy iqtisodiyotning tarmoqlari, sektorlari, bloklari klassifikatsiya (tasnifi)si, iqtisodiy faoliyat, mahsulot va xizmatlarni klassifikatori.

O'zbekiston Respublikasida MHT (milliy hisoblar tizimi)ni joriy etish va asosiy statistikasi jahon andoza (standart)lari asosida reformatsiya qilish borasidagi vazifalar, erishilgan yutuqlar va muammolar. Bu boradagi Davlat dasturi (VM ning 24.08.94yildagi № 433 qarori) va uning bajarilishi.

Aholi va mehnat resurslari statistikasi

XXI asrda yuz beradigan demografik holat va aholi statistikasining vazifalari. Aholining soni, tarkibi, kategoriyalari va joylanishi ko'rsatkichlari. Aholining tabiiy va mexanik harakati statistikasi. Aholini kutiladigan o'rtacha umr ko'rishi ko'rsatkichlari va ularni hisoblash. Aholining kelajakdagi sonini hisoblash metodlari. Aholini ijtimoiy tavsiflash ko'rsatkichlari: bilim ko'rsatkichlari, aholini sog'lig'i (yoki kasallanishi) va tibbiy yordamga, toza suvga va sanitariyaga ega bo'lish imkoniyatlari.

Mehnat resurslari statistikasi: mohiyati tarkibi, harakati. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 31.01.2002 dagi 42 - sonli "Aholini ish bilan ta'minlanganligini hisobga olish tizimini takomillashtirish to'g'risida" gi qarori va statistikaning vazifalari. Mehnat resurslarining hisobot balanslarini tuzish va iqtisodiy - statistik tahlil qilish. Mehnatga yaroqli aholining demografik yuklama ko'rsatkichlari. Mehnat resurslarining sifat ko'rsatkichlari: bilim potentsiali, bilim darajasi, iqtisodiy bahosi, PROON - UNDP ning inson taraqqiyoti dasturidagi boshqa ko'rsatkichlar.

Iqtisodiy faol va nafaol aholi. Ishchi kuchi soni, tarkibi, harakati va sifati ko'rsatkichlari.

Bandlik statistikasi ko'rsatkichlari. Bandlikdagi statusi bo'yicha aholi klassifikatsiyasi. Ish bilan bandlarning soni, tarkibi va harakati statistikasi. Ishlamayotganlar va ishsizlar statistikasi. Ishsizlikning shakllari, turlari va darajalari. Ishsizlik darajasining dinamikasi va ishsizlikning iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlarini statistikada baholash.

Milliy boylik statistikasi

Milliy boylik - makroiqtisodiy tahlilning tayanch nuqtasi, mamlakatning iqtisodiy qudratini ifodalovchi ko'rsatkichdir. Milliy boylikning tarkibi, hajmi va dinamikasini baholash borasidagi ilmiy - amaliy qarashlar (R.Goldsmit, Dj.Kendrik, A.Vaynshteyn, L.Nesterov, E.Buxvald, N.Fedorenko, V.Faltsman, boshqalar). MHT doirasida milliy boylikning klassifikatsiyasi va O'zbekiston Respublikasidagi milliy amaliyot. BMT va Jahon Bankining Milliy boylikning tarkibi, hajmi, strukturasi va dinamikasini hisoblash borasidagi yangicha yondashuvlari (J.Dikson va K.Hamilton). *Aktivlar va passivlar balansi (BMTning 1993 yildagi MHTi standarti). Mamlakat milliy boyligi. Ishlab chiqarilgan (fizik) kapital: mohiyati, tarkibi, baholash va dinamikasini statistikada o'rganilishi.*

Asosiy fondlarning makroiqtisodiy statistikasi. Asosiy fondlarning klassifikatsiyasi, baholash va amortizatsiya ajratmalarini hisoblash usullari. Asosiy fondlarning holati, harakati va tovar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasida foydalanish ko'rsatkichlari. Mehnatni asosiy fondlar bilan qurollanishi, mehnat unumdorligi, mahsulot va xizmatlarni asosiy fondlarga talabchanligi ko'rsatkichlarini birgalikda o'rganish. *Ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishning (tarmoq, yig'ma) ko'rsatkichlari. Aylanma kapital statistikasi.*

Tabiiy kapital: mohiyati, tarkibi, milliy boylik hajmini hisoblashda uni baholash metodlari.

Inson kapitali. XXI asrda inson kapitalining iqtisodiy o'sish va rivojlanishdagi ahamiyatini o'zgarishi. Inson kapitali statistikasining uslubiyat va tashkiliy jihatlari. O'zbekiston respublikasida milliy boylik statistikasini ahvoli, jonlantirish va rivojlantirish muammolari.

Yalpi ichki mahsulot va yalpi milliy daromad statistikasi

Xalq xo'jaligi balansi va Milliy hisoblar tizimining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari. Yalpi ishlab chiqarish, oraliq iste'moli, qo'shilgan qiymat, yalpi ichki mahsulot, yalpi milliy daromad va boshqa ko'rsatkichlar. Bu ko'rsatkichlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, ularning mazmuni va ahamiyati. Mamlakatning iqtisodiy potentsiali, rivojlanishi darajasini baholashda va hamda xalqaro taqqoslashlarda qo'llaniladigan markaziy ko'rsatkich - YaIMdir.

YaIM hajmini hisoblash metodlari: ishlab chiqarish (yalpi qo'shilgan qiymatlar yig'indisi), pirovardida foydalanish ($GDRqS+I+G+Xp$) va taqsimot (birlamchi daromadlarni yig'indisi) metodlari. *Ekologik YaIMni hisoblash muammolari. Pinxona iqtisodiyot: faoliyat turlari va ko'lami. Pinxona iqtisodiyot hajmini*

statistikada hisoblash metodlari. YaIM hajmini hududlar (regionlar) bo'yicha hisoblash muammolari va ularning echimlari.

YaIM hajmini ishlab chiqarish metodida hisoblash. Xalq xo'jaligi tarmoqlari, sektorlari, bloklarida va hududlarida yalpi ishlab chiqarish, yalpi va sof qo'shilgan qiymat ko'rsatkichlarini hisoblash xususiyatlari.

YaIM hajmini o'zgarmas (solishtirma) baholarda baholash metodlari (baho indeksi orqali deflyatorlashtirish, ikkiyoqlama deflyatorlashtirish, bazis (tayanch) davri ko'rsatkichini fizik hajm indeksi yordamida ekstrapolyatsiya qilish va boshqa metodlar). YaIM hajmini AQSh dollarida (rasmiy almashuv kursi va RRR\$ - valyutani xarid qobiliyati pariteti asosida) qayta baholash. YaIMning hajmini va uning qismlarining xalqaro taqqoslash metodikasi.

YaIM hajmi va dinamikasini faktor analizi. Bo'linmagan qoldiq, uni faktorlar hissasiga bo'lish (taqsimlash) muammolari.

Milliy daromad statistikasi. Yalpi va sof milliy daromad. Milliy ixtiyordagi daromad va boshqalar.

Moliya va bahoning makroiqtisodiy statistikasi

